



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-70-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashi tomonidan 2021-yil va 2022-yilda umumta'lim muassasalari direktori lavozimiga tavsiya etilgan tumandagi umumta'lim maktablari direktorlarining yil yakuni bo'yicha 3 yillik dasturning ijrosi yuzasidan hisobotlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni 11-bandiga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi tomonidan 2021-yil va 2022-yilda umumta'lim muassasalari direktori lavozimiga tavsiya etilgan tumandagi 8, 12, 14, 16, 18, 27, 32, 36, 37, 38, 41, 44-sonli umumta'lim maktablari va 3-sonli AFChO'IM direktorlarining 2022-yil yakuni bo'yicha 3 yillik dasturning ijrosi yuzasidan hisobotlari xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko'rib chiqilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tumandagi 8, 12, 14, 16, 18, 27, 32, 36, 37, 38, 41, 44-sonli umumta'lim maktablari va 3-sonli AFChO'IM direktorlarining 2022-yil yakuni bo'yicha 3 yillik dasturning ijrosi yuzasidan hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi 12, 18, 32, 36, 37, 38, 41, 44-sonli maktab direktorlarining hisobotlarini muhokama etib 2022-yil yakuni bo'yicha umumta'lim muassasasi ko'rsatkichlarini kelgusi 3 yilda yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha dasturi ijrosi yuzasidan faoliyati yaxshi ko'rsatkich deb;

– tumandagi 8, 14, 16, 27-sonli umumta'lim maktablari va 3-sonli AFChO'IM direktorlarining hisobotlarini muhokama etib 2022-yil yakuni bo'yicha umumta'lim muassasasi ko'rsatkichlarini kelgusi 3 yilda yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha dasturi ijrosi yuzasidan faoliyati qoniqarli ko'rsatkich deb baholansin.

3. Tuman xalq ta'limi bo'limiga:

– 2022-yil yakuni bo'yicha umumta'lim muassasasi ko'rsatkichlarini kelgusi 3 yilda yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha dasturi ijrosi yuzasidan faoliyati salbiy ya'ni qoniqarli ko'rsatkich deb baholangan tumandagi 8, 14, 16, 27-sonli umumta'lim maktablari va 3-sonli AFChO'IMda ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha aniq chora–tadbirlar belgilash, amaliy uslubiy yordam ko'rsatish hamda mazkur maktab direktorlari faoliyatini Hay'at yig'ilishida muhokama etib, qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy javobgarlik choralari ko'rish;

– amalga oshirilgan ishlar to'g'risida 2023-yil 1-aprel kuniga qadar xalq deputatlari Angor tumani Kengashiga yozma axborot kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tumandagi 12, 18, 32, 36, 37, 38, 41, 44-sonli umumta'lim maktablari direktorlarining umumta'lim muassasasi ko'rsatkichlarini yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha 3 yillik dasturning to'liq va sifatli ijro etilishiga shaxsan mas'ul ekanligi belgilab o'tilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati va “Angor yog'dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva) tumandagi umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya tizimini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy – ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova) zimmlariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov